

**Sana:** \_\_\_\_\_

**Fan:** Tarix

**Sinfi:** 6 \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Kirish.

<b>Mavzu:</b> Kirish
<b>Mavzuga oid tayanch tushunchalar:</b> Epigrafika,numizmatika,sivilizatsiya,Rigveda,Avesto
<b>Soatlar soni:</b> 1 soat
<b>O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b> <b>Dars turi:</b> Yangi bilim beruvchi <b>Metod:</b> suhbat, tushuntirish, "Savol-javob" metodi, "Jadval texnologiyasi" , "Tadqiqotlar yoki loyixa texnologiyasi","Rasmlarda aks etgan tarix" <b>Shakl:</b> jamoa, guruhda ishlash <b>Jihoz:</b> I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch"asari darslik,siyosiy xarita,tarqatma,rasmlar ko`rgazma,slayd,kompyuter. <b>Nazorat:</b> o`quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. <b>Baholash:</b> O`quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e`lon qilinadi.
<b>Darsning maqsadi</b>
<b>Maqsadlar:</b> <b>Ta`limiy maqsad:</b> -o`quvchilarga Qadimgi dunyo tarixi haqida ma`lumot berish; <b>Tarbiyaviy maqsad:</b> - o`quvchilarga vatanimiz boshidan kechirgan g`oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida ,quldorlik tizimi haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o`rgatish; <b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b> -o`quvchilarni dunyoqarashini, nutqini,fikrlash qobiliyatini, shakllantirish. <b>Tayanch kompetensiyalar:</b> <b>Kommunikativlik</b> o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzu:dan kelib chiqib savollarni mantiqan to`g`ri qo`ya olish va javob berish; <b>Milliy va umummadaniy</b> umumbashariy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatlarini (urf odatlar, marosimlar, milliy madaniy an`analar va.h.k.) hurmat qilish; o`zgalarga nisbatan mehmruruvat, saxiylik, diniy e`tiqodi, milliy hususiyatlari, an`ana va marosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o`rnatilgan odobxalq qoidalari riyoga qilish <b>O`z-o`zini rivojlantirish</b> shaxs sifatida doimiy ravishda o`z-o`zini rivojlantirish, ma`naviy va intellektual kamolotga intilish; o`z hatti-harakatini adekvat baholash, o`zini nazorat qila bilish, halollik, to`g`rilik kabi sifatlariga ega bo`lish. <b>Fanga oid kompetensiyalar:</b> • <b>Tarixiy voqeilikni tushunishvauni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi.</b> tarixiy davrlar va -yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi; mazkur davrni o`rganish orqali o`quvchilar tarix fanining o`rganilayot- gan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini biladi;

### Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish,davomatni aniqlash,sinf tozaligini kuzatish.

**II.O`tilgan mavzuni takrorlash:** O`quvchilarning 5-sinfda olgan bilimlarini sinab ko`rish uchun guruhlarga ajratiladi.

1-topshiriq: 5-sinfda qaysi davrlar o`rganiladi? (Guruhlar birgalikda ishlab tagdimot qiladilar) Faol guruh baholanadi.

2-topshiriq: Atamalarni to`g`ri keladiganini belgilang

1	Arxeologiya	A	Tangalarni o`rganuvchi fan
2	Etnografya	B	Bitiklarni o`rganuvchi fan
3	Lingivistika	C	Xalqlarning turmush tarsi va xo`jalik hayotini o`rganuvchi fan
4	Numizmatika	D	Odamlarning qiyofasini o`rganuvchi fan
5	Epigrafika	E	Qazishmalar orqali topilmalarni

			o`rganuvchi fan
6	Antropologiya	F	Tilshunoslik

1\_\_\_\_, 2\_\_\_\_, 3\_\_\_\_, 4\_\_\_\_, 5\_\_\_\_

Faol guruhlar baholanadi.

### III.Yangi mavzu bayoni:

5-sinfda «Tarixdan hikoyalar» bilan tanishgan edingiz. Siz endilikda uzoq o'tmish haqida bilimlar qanday qilib jamlanishini bilib oldingiz.

6-sinfda olis-olis zamonlarga sayohatimizni davom ettiramiz, eng qadimgi davlatlar va xalqlar tarixi, madaniyati va urf-odatlarini bilan ta- nishib chiqamiz.


Mesopotamiya, Misr, Yunoniston, Rim va O`rta Osiyoning ilk davlatlari mavjud bo`lgan davrlardan beri ming yillar o`tdi. Ammo qadim zamon- larda odamlar yaratgan ko`pdan ko`p narsalardan bugun ham kundalik hayotda foydalanib kelinmoqda. Bu mehnat qurollari, sopol buyumlar, g`ildirak, sopol suv quvurlari, gazlamalar, yozuv va boshqa ko`pgina narsalardir. Qadimgi zamon mualliflari yozib qoldirgan asarlar hali-hanuz kishilarga saboq berib, tarbiyalab kelmoqda.

Olimlar Yer yuzida qachonlardir ro`y bergan voqealarni qaytadan tiklash uchun katta kuch- g`ayrat sarflaganlar. Ular qadimgi shaharlarni topib tekshirishdi, chirmga, sopolga, toshga, shuningdek, tangalarda bitilgan sirli yozuvlarni o`qishdi. Siz endi arxeologik topilmalar nimalar haqida so`zlab berishini bilasiz. Qadimgi bitiklarni o`rganish bilan *epi- grafika*, tangalarni o`rganish bilan esa *numizmatika* degan maxsus fan shug`ullanadi.

Insoniyat sodda mehnat qurollarni yasashdan to hunarmandchilik durdonalari- ni yaratishga qadar, eng oddiy uy-joylarni qurib olishdan to shaharlarni bunyod etishga qadar uzoq yo`lni bosib o`tdi. Eng qadimgi shaharlar, yozuv, davlatlar tashkil topishi va rivojlanishi davrini olimlar ilk *sivilizatsiya* deb ataydilar. Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi Qadimgi Sharqda, so`ngra Yunonistondagi Kritorolida boshlangan edi. Qadimgi sivilizatsiyalar jahonning ko`pgina olkalarida kabi, O`rta Osiyo, jumladan, O`zbekiston hududida ham vujudga kelgan.

Biroq qadimgi dunyo tarixiga oid hali ochilmagan sirlar oz emas. Balki birortangizga ularni ochish nasib etar. Tarix bizni ko`p narsaga o`rgatadi.

### IV.Mustahkamlash:O`qituvchi doskaga quyidagi klasterni yozadi o`quvchilar to`ldiradilar.



Faol o`quvchilar baholanadi.

O`qituvchi o`quvchilarga savol beradi. Nima uchun tarixni “Buyuk o`qituvchi ”deymiz?

O`quvchilar fikri tinglanadi va o`qituvchi tomonidan to`ldiriladi.

### VI.Uyga vazifa:

Xaritadan Mesopotamiya,Misr,Babil,Xitoy,Hindiston,Markaziy Osiyo,Koreya kabi davlatlarni topib keling va poytaxtini belgilang.

O`.T.I.B.D.O` \_\_\_\_\_

**Sana:** \_\_\_\_\_

**Fan:** Tarix

**Sinfi:** 6 \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi

<b>Mavzu:</b> Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi
<b>Mavzuga oid tayanch tushunchalar:</b> Arxeolog, Lingivist, Etnograf, Antrpolog
<b>Soatlar soni:</b> 1 soat
<b>Mavzuning qisqacha ta'rifi:</b>
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>
<b>Dars turi:</b> Yangi bilim beruvchi
<b>Metod:</b> suhbat, tushuntirish, "Savol-javob" metodi, "Jadval texnologiyasi", "To'g'risini top", "Rasmlarda aks etgan tarix"
<b>Shakl:</b> jamoa, guruhda ishlash
<b>Jihoz:</b> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari darslik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmi, ko'rgazma, slayd, kompyuter, arxeologik topilmalar, qadimgi (bugungi) yozuvlar.
<b>Nazorat:</b> o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
<b>Baholash:</b> O'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.
<b>Darsning maqsadi</b>
<b>Maqsadlar:</b>
<b>Ta'limiy maqsad:</b> - o'quvchilarga Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi haqida ma'lumot berish;
<b>Tarbiyaviy maqsad:</b> - o'quvchilarga vatanimiz tarixi kechirgan murakkab va mashaqqatli hayoti haqida, bundan saboq olishni o'rgatish;
<b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b> - o'quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.
<b>Tayanch kompetensiyalar:</b>
<b>Kommunikativlik</b> o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzu: dan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;
<b>Milliy va umummadaniy</b> umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarini (urf odatlar, marosimlar, milliy madaniy an'analar va h.k.) hurmat qilish; o'zgalarga nisbatan mehmruruvat, saxiylik, diniy e'tiqodi, milliy hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o'rnatilgan odobxloq qidalariga rioya qilish
<b>O'z-o'zini rivojlantirish</b> shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy va intellektual kamolotga intilish; o'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.
<b>Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish</b> tarixda yil xisobini o'qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o'qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o'qiy oladi. miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o'rtasidagi farqalarni matematik amallar bilan yecha oladi.
<b>Fanga oid kompetensiyalar:</b>
<ul style="list-style-type: none"><li><b>Tarixiy voqeilikni tushunishvauni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi.</b> tarixiy davrlar va -yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi; mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini biladi; Tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bera oladi, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi</li><li><b>Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi.</b> Tarixiy ilustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi, tarixiy joylarni xaritadan ko'rsata oladi</li></ul>


### Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O'tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

**I. Tashkiliy qism:** Salomlashish, davomatni aniqlash, sinf tozaligini kuzatish.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash:**

Rasmlarga ta'rif bering



1. Rasmda nimani ko'ryapsiz?

2.Nima uchun odamlar qo`lida qurol yo`q?

3.Nima uchun odamlar egnida kiyim yo`q?

Faol o`quvchilar baholanadi.

### III.Yangi mavzu bayoni:

*Antropologlar* qadimgi odamlarning qoldiqlari (skelet va boshchanoq)ni sinchiklab tekshirib, ularning tashqi ko`rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro`y bergan o`zgarishlar- ni o`rganadilar.

*Etnograflar* qadimgi odamlarning ko`pgina udum- lari, xo`jalik va madaniy an`analarini saqlab qolgan hozirda mavjud qabilalar va xalqlarni o`rganadilar.

*Lingvistlar*, ya`ni tilshunoslar u yoki bu zamo- naviy tilning qanday shakllanganini bilish maqsadida qadimgi tillarni o`rganadilar.

**O`qituvchi o`quvchilarga ko`rgazma sifatida arxeologik topilmalar,etnografik ma`lumotlar, boshqa davlatlarning yozuvini ko`rsatadi.**

Yozma manbalar topilishi bilan olimlarga qadimgi mingyilliklar tarixini tiklash osonlashdi. O`rta Osiyo tarixi bo`yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiy- larning muqaddas kitobi «Avesfo»dir. Unda yurtimiz- ning qadimgi tarixi yviloyatlari - *Baqtriya, So`g`diyona, Xorazm* aholisi madaniyati to`g`risida hikoya qilinadi.

Qadimgi davr tarixiga doir yana bir yozma manba *Behistun* qoyalariidagi yozuvlardir. Behistun qoyalari Erondagi *Kirmonshoh* shahri yaqinida joylashgan. Fors shohi *Doro I* buyrug`i bilan qoyaga o`yib yozil- gan - qadimgi *fors, elam va bobil* tillaridagi yozuvlarda, *Doro I* zabt etgan mamlakat va xalqlar, shu jumladan, *Xorazm, So`g`diyona, Baqtriya* davlat- lari sanab o`tiladi.

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon ta- rixchisi *Gerodot* turli mamlakatlarga sayohat qilib, to`qqiz kitobdan iborat «Tarix» asarini yozdi. Unda olkamizning qadimgi aholisi to`g`risida ma`lumot ham beriladi.

Miloddan avvalgi I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi *Strabon* «Geografiya» nomli asarida ko`plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma`lumotlar keltiradi.

Miloddan avvalgi II asr oxiri - I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi *Sim Syan* «Tarixiy yilnomalar» nomli asar yozgan. U yurtimizning qadimgi aholisi to`g`risida ham ma`lumotlar bergan.

Milodiy I asrda qadimgi Rim tarixchisi *Kvint Kur- siy Ruf* «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli asar yozgan. Makedoniyalik Aleksandrning O`rta Osi- yoga harbiy yurishlari haqidagi ma`lumotlarni milodiy II asrda yunon tarixchisi *Arrian* ham ancha to`ldiradi. U «Aleksandrning harbiy yurishlari» deb nomlangan asar yozgan.

**IV.Mustahkamlash:**O`quvchilarga yunon rim olimlari manbalarini to`g`ri belgilang.

1	Geradot	A	«Tarixiy yilnomalar»
2	Kvin Kursiy Ruf	B	«Aleksandrning harbiy yurishlari»
3	Arriyan	C	«Geografiya»
4	Strabon	D	«Makedoniyalik Aleksandr tarixi»
5	Simma Szyan	E	“Tarix”

1\_\_\_\_, 2\_\_\_\_, 3\_\_\_\_, 4\_\_\_\_, 5\_\_\_\_

Faol o`quvchilar baholanadi.

**VI.Uyga vazifa:** Guruhlarga uyga vazifa qilib, arxeologik topilmalar topib kelish,etnografik ma`lumotlar to`plash,biror notanish tilni o`qib kelish topshirig`I beriladi.

1-guruh: O`quvchilar izlanib uydan yoki mahallasidan arxeologik topilmalar topib kelish.

2-guruh: O`zi yashab turgan hududni etnografik ma`lumotlarini to`plab kelish.(hudud nomi, aholi xo`jaligi, urf -odatlar)

3-guruh: Biror notanish til o`rganib, 2 ta so`z yod olib kelish.

Uyga vazifani bajarishda o`quvchilar kattalardan yordam olishlari mumkin.

O`.T.I.B.D.O` \_\_\_\_\_

# Kompetensiya asosida tuzilgan

## Yillik dars ishlanmani to'liq olishni istaysizmi?

### Bog'lanish uchun:



**Tel: + 99890 7269514**



**E-Pochta: [dars-ishlanma@mail.ru](mailto:dars-ishlanma@mail.ru)**



**Telegram: [@Dars\\_ishlanma](https://www.telegram.com/@Dars_ishlanma)**

Dars ishlanmalar moxir o'qituvchilar tomonidan tuzib chiqildi. Dars ishlanmalardan darsning texnologiyasini, metodlarini va kompetensiyalarini o'rganishda foydalaning! Word shaklda beriladi